Qo'ziyev Shodiyor Qilichboy o'g'li	
Mintaqada xalq hunarmandchiligida klasterlash va ekologik logistika modeli asosida savdo tizimini shakllantirish.....	1015
Norqobilova Feruza Abduhomidovna	
To'g'ri xarajatlar usuli va to'liq yutuvchi xarajatlar usuli tizimlarining afzalliklari va farqli jihatlari amaliy misolda.....	1019
Kholisa Kamoliddinovna Kuldosheva	
Investitsiyalarni innovatsiyalarga yo'naltirish bo'yicha xorij tajribasi	1024
Ayubov Ilyos Ilxomovich	
Важность разработки стратегических программ развития страны.....	1028
Каримова Нуржахон Олим кизи	
Sanoat korxonasining raqamli transformatsiyasini baholash omillari va ko'rsatkichlari.....	1032
Kudaybergenov Azamat Shamuratovich	
Namangan viloyatida ijtimoiy turizm tadbirkorligini maqsadli boshqarish mexanizmi.....	1042
Yunusova Sohiba Abdumamidovna	
Evaluating the capital asset pricing model methodology in uzbekistan companies	1048
Bunyod Usmonov	
Aholini ish bilan bandligining yangi turlari va imkoniyatlari	1055
A.B. Khayitov	
Maktab direktorlarini qo'llab-quvvatlashda asosiy ustun amaliyotlar va o'zbekiston ta'lim tizimida ularni qo'llash imkoniyatlari	1059
Mamura Tadjibayeva	
Sun'iy intellekt asosida matematik masalalarni yechish algoritmlari	1064
Oqnazarov To'liqin Jalilovich, Jo'rayev Mardon	
Global ta'lim makonida milliy tarbiyani rivojlantirish istiqbollari	1071
Sanaqulov Sardor Istamqulovich	



Bank xizmatlari sifati va bank daromadlariga ta'sir etuvchi omil sifatida personal faoliyatining o'rni.....	1075
Abdukaxarova Shoirabduvahobovna	
Fond bozori raqamli iqtisodiyotda investitsiyalarni shakllantirish manbai sifatida.....	1079
Kamilova Sevara Anvarovna	
O'zbekistonda toza suv va sanitariyaning inson hayoti hamda iqtisodiy farovonlikka ta'siri: BRM-6 doirasida tahlil.....	1085
Xasanova Iroda Azizbek qizi	
Increasing the effectiveness of using marketing communications in the tourism services market.....	1090
Sobirjonov Asrorbek Sobitjon ugli	
Davlat xaridlari sohasini takomillashtirish istiqbollari.....	1095
Bazarov Nazirjon Sobirovich	



DAVLAT XARIDLARI SOHASINI TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI

Bazarov Nazirjon Sobirovich

Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv
va texnologiyalar universiteti

“Iqtisodiyot va boshqaruv” kafedrası
dotsent v.b., i.f.n.

E-mail: nazirjon.bazarov@mail.ru

Annotatsiya: Davlat xaridlari amaliyotida ishtirokchilar sonini ko'paytirish orqali raqobat muhitini yanada rivojlantirish va unda inson omilini imkon qadar kamaytirish, tender va tanlovlar hamda ajratilgan mablag'lar samaradorligini oshirish bilan bir qatorda, mamlakatimiz aholisini kechiktirib bo'lmaydigan tovarlar (ishlar, xizmatlar) bilan ta'minlashda muhim omil hisoblanadi.

Kalit so'zlar: davlat xaridlari, tender jarayonlari, raqobat muhiti, inson omili, moliyaviy samaradorlik, elektron do'kon, to'g'ridan-to'g'ri shartnoma, hujjatlar taqdimoti, sertifikatlash, qonunchilik asoslari, budjet mablag'lari, korrupsiyaga qarshi kurash, ikki xil maqsadda ishlatiladigan tovarlar, davlat buyurtmachilari, xarid mexanizmi, tadbirkorlik subyektlari, sifatni tasdiqlovchi hujjatlar, tanlov mezonlari, tender kvorumi, narxlar barqarorligi.

Abstract: Expanding the number of participants in public procurement practices and minimizing the human factor are essential for fostering a more competitive environment. Along with improving the efficiency of tenders, selection processes, and allocated budget usage, these factors play a crucial role in ensuring timely provision of essential goods (works, services) to the population of the country.

Key words: public procurement, tender procedures, competitive environment, human factor, financial efficiency, e-marketplace, direct contracts, document submission, certification, legal framework, budgetary funds, anti-corruption, dual-purpose goods, public customers, procurement mechanism, business entities, quality verification documents, selection criteria, tender quorum, price stability.

Аннотация: Дальнейшее развитие конкурентной среды через увеличение количества участников в практике государственных закупок и максимальное снижение человеческого фактора, а также повышение эффективности тендеров, конкурсов и использования выделенных средств являются важным фактором в обеспечении населения нашей страны товарами (работами, услугами), которые не терпят отлагательства.

Ключевые слова: государственные закупки, тендерные процессы, конкурентная среда, человеческий фактор, финансовая эффективность, электронный магазин, прямой договор, представление документов, сертификация, законодательные основы, бюджетные средства, борьба с коррупцией, товары двойного назначения, государственные заказчики, механизм закупок, субъекты предпринимательства, подтверждающие документы, критерии отбора, тендерный кворум, стабильность цен.

KIRISH

Bugungi kunda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar zamirida "xalqimizning erkin va farovon hayotini ta'minlash, har bir fuqaroning o'z salohiyatini rivojlantirish uchun barcha imkoniyatlarni yaratish, o'sib kelayotgan avlodni sog'lom, bilimli va ma'naviy barkamol qilib tarbiyalash", mamlakatni kuchli iqtisodiyotga ega davlatga aylantirish maqsadi yotadi.

Ushbu yuksak maqsadlarga erishish jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish, xavfsizlik va barqarorlikni kafolatli ta'minlash orqali amalga oshiriladi.



Mamlakat aholisi xavfsizligi va barqarorligini ta'minlashda ikki xil maqsadda ishlatiladigan tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) davlat xaridlarini amalga oshirish yo'llarini takomillashtirish hamda ulardan foydalanish samaradorligini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Davlat xaridlari zamonaviy davlat boshqaruvida moliyaviy resurslarni samarali taqsimlash va maqsadli ishlatishning muhim vositasidir. Bu tizimning takomillashuvi budjet mablag'laridan oqilona foydalanish, korrupsiya xavfini kamaytirish, raqobat muhitini shakllantirish va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash bilan chambarchas bog'liq.

O'zbekiston Respublikasining "Davlat xaridlari to'g'risida"gi Qonuni (2021–22–aprel, O'RQ-684-son)¹ davlat xaridlari jarayonining huquqiy asoslarini belgilab beradi. Ushbu qonun asosida xarid turlari, tanlov va tender mexanizmlari, elektron do'konlar va to'g'ridan-to'g'ri shartnomalar bilan bog'liq tartib-taomillar belgilangan. Vazirlar Mahkamasining 2022–20–maydagi 276-son qarori² esa xaridlarni elektron shaklda tashkil etish va o'tkazish tartibini yanada aniq belgilaydi.

"Transparency International" xalqaro tashkiloti tomonidan e'lon qilinadigan Korrupsiyani qabul qilish indeksi davlat xaridlaridagi shaffoflik va korrupsiyaga qarshi kurashning samaradorligini ko'rsatib beradi. O'zbekistonning ushbu indeksdagi o'rnini yaxshilash maqsadida "O'zbekiston – 2030" strategiyasida davlat xaridlari qonunchiligini takomillashtirish, inson omilini kamaytirish va jamoatchilik nazoratini kuchaytirish belgilab olingan (PF-158-sonli Farmon, 2023–11–sentyabr)³.

Ilmiy manbalar, jumladan, Bekmuradov (2021), Tursunov va Burkhanov (2022) tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlar davlat xaridlarida raqobatni kengaytirish va elektron savdolar orqali inson omilini kamaytirish muhimligini ko'rsatadi. Shuningdek, Jahon banki, OECD (2020) va UNDP kabi xalqaro tashkilotlar tomonidan ishlab chiqilgan tavsiyalar davlat xaridlarida korrupsiyaga qarshi kurashda ochiqlik va raqamlashtirish muhimligini ta'kidlaydi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, strategik xaridlar uchun alohida mexanizmlarni belgilash, shartnomalarning shaffof tuzilishi, sifatni tasdiqlovchi hujjatlarni yetkazib berish vaqtida taqdim etish imkonini beruvchi yondashuvlar — xarid jarayonining samaradorligini oshirishda asosiy omillardan biri bo'lib xizmat qilmoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Davlat xaridlari — davlat buyurtmachilarining tovarlarga (ishlarga, xizmatlarga) bo'lgan ehtiyojlarini pulli asosda ta'minlash jarayoni bo'lib, ushbu jarayon O'zbekiston Respublikasi "Davlat xaridlari to'g'risida"gi 2021–22–apreldagi O'RQ-684-sonli Qonun⁴ asosida tartibga solinadi.

Mazkur Qonun bilan davlat xaridlarini amalga oshirishning umumiy qoidalari, davlat tomonidan tartibga solish usullari, davlat xaridlarining subyektlari, xarid jarayoniga doir umumiy talablar, elektron do'kon vositasida amalga oshiriladigan xaridlar tartib-taomillari, boshlang'ich narxni pasaytirish uchun o'tkaziladigan auksion savdolari, tender savdolarining tartibi va talablari, ikki bosqichli davlat xaridlari va to'g'ridan-to'g'ri shartnomalar asosida amalga oshiriladigan xaridlar qamrab olingan. Shuningdek, to'g'ridan-to'g'ri shartnomalardan tashqari barcha xaridlar elektron tarzda amalga oshirilishi, tuzilgan to'g'ridan-to'g'ri shartnomalar to'g'risidagi ma'lumotlar maxsus axborot portaliga joylashtirilishi belgilangan.

Qonunning ijrosini ta'minlash va davlat xaridlarining raqobatli usullarini amaliyotga joriy etish maqsadida Vazirlar Mahkamasining 2022–20–maydagi 276-sonli qarori⁵ qabul qilingan. Ushbu qaror bilan davlat xaridlariga oid tartib-taomillarni tashkil etish va o'tkazish tartibini belgilovchi nizom tasdiqlangan. Nizomda xaridlarning elektron shaklda o'tkazilishi, to'g'ridan-to'g'ri shartnomalar asosida amalga oshirish qoidalari hamda vakolatli organ sifatida Iqtisodiyot va moliya vazirligi belgilangani qayd etilgan.

Yuqoridagi Qonun va Vazirlar Mahkamasining qarori asosida davlat xaridlarini korrupsiyadan xoli hamda samarali amalga oshirish imkonini beruvchi tizim shakllantirilgan. Mazkur maqola ilmiy bilishning fundamental metodologiyasi asosida yaratilgan bo'lib, davlat xaridlari sohasida raqobat muhitini kengaytirish orqali budjet mablag'laridan samarali foydalanish masalasi yoritilgan. Tadqiqot davomida induksiya va deduktsiya, dialektik

1 O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 22.04.2021 yildagi O'RQ-684-son <https://www.lex.uz/uz/docs/-5382974>

2 O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 20.05.2022 yildagi 276-son <https://lex.uz/docs/-6026643?ONDATE2=01.01.2023&action=compare>

3 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 11.09.2023 yildagi PF-158-son <https://lex.uz/docs/-6600413?ONDATE=12.09.2023%2000>

4 O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 22.04.2021 yildagi O'RQ-684-son <https://www.lex.uz/uz/docs/-5382974>

5 O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 20.05.2022 yildagi 276-son <https://lex.uz/docs/-6026643?ONDATE2=01.01.2023&action=compare>



birlik, nazariya va amaliyot o'zaro bog'liqligi, taqqoslash va o'xshashlik kabi ilmiy usullardan foydalanilgan. Shuningdek, tizimli yondashuv asosida iqtisodiy-statistik va tuzilmaviy-dinamik tahlil uslublari qo'llanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekiston Respublikasi "Davlat xaridlari to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq, davlat xaridlarini amalga oshirish hajmlariga nisbatan mezonlar belgilangan. Xususan, elektron do'kon vositasida davlat xaridlarini amalga oshirishda quyidagi chegaralar belgilangan (1-jadval):

Tovarlar xaridi — bazaviy hisoblash miqdorining (BHM) 25 000 baravarigacha, budget buyurtmachilari uchun 2 500 baravarigacha;

Ishlar va xizmatlar xaridi — BHMning 100 baravarigacha, budget buyurtmachilari uchun 50 baravarigacha;

Bir turdagi tovarlar xaridi bir moliya yili davomida — budget buyurtmachilari uchun 10 000 baravarigacha;

Bir turdagi ishlar va xizmatlar xaridi bir moliya yili davomida — budget buyurtmachilari uchun 500 baravarigacha, korporativ buyurtmachilar uchun 1 000 baravarigacha.

Eng yaxshi takliflarni tanlash yo'li bilan xaridlarni amalga oshirish quyidagi ikki shart bir vaqtning o'zida bajarilganda amalga oshiriladi:

Tovar (ish, xizmat) qiymati pul ko'rinishidagina emas, balki miqdoriy va sifat jihatdan ham baholanishi;

Tovar (ish, xizmat) qiymati bir shartnoma bo'yicha BHMning 25 000, budget buyurtmachilari uchun 6 000 baravarigacha bo'lgan miqdorni tashkil etishi.

1-jadval. Davlat xaridlarini amalga oshirish hajmlariga belgilangan mezonlar (bazaviy hisoblash miqdorida)

Xarid turi	Buyurtmachi turi	Elektron do'kon vositasida		Eng yaxshi takliflarni tanlash	Tender	
		Bir shartnoma bo'yicha	Moliyaviy yil davomida	Bir shartnoma bo'yicha	Bir shartnoma bo'yicha	
Tovarlar xaridi	Korporativ buyurtmachilar uchun	25 000 gacha	25 000 gacha	25 000 gacha	25 000 dan yuqori	
	Budget buyurtmachilari uchun	2 500 gacha	10 000 gacha	6 000 gacha	6 000 dan yuqori	
Ishlar va xizmatlar xaridi	Korporativ buyurtmachilar uchun	100 gacha	1 000 gacha			
	Budget buyurtmachilari uchun	50 gacha	500 gacha			

[OKO3:

1.02.00.00.00 Davlat boshqaruvi asoslari / 02.08.00.00 Iqtisodiyot, ijtimoiy-madaniy qurilish sohasidagi davlat boshqaruvining umumiy masalalari / 02.08.02.00 Davlat ehtiyojlari. Davlat xaridlari]

G'olibni aniqlash mezonlari tovar (ish, xizmat) davlat xaridining nafaqat pul ifodasiga, balki miqdoriy va sifat bahosiga ham ega bo'lgan holatda, shuningdek, tovarning (ishning, xizmatning) qiymati bir shartnoma bo'yicha bazaviy hisoblash miqdorining 25 000, budget buyurtmachilari uchun esa 6 000 baravarigacha bo'lgan miqdorni tashkil etgan taqdirda amalga oshiriladi. Agar farmon va qarorlar bilan davlat buyurtmachilariga tender o'tkazmasdan xaridlarni amalga oshirish huquqi berilgan bo'lsa, xarid qilish tartib-taomili davlat xaridining summasidan qat'i nazar, tanlash yo'li bilan amalga oshirilishi belgilangan.



Tender o'tkazish orqali xaridlarni amalga oshirish mezonlari quyidagi ikki shart bir vaqtning o'zida bajarilgan taqdirda qo'llaniladi:

G'olibni aniqlash mezonlari tovarning (ishning, xizmatning) pul bilan baholanishi bilan birga, uning miqdoriy va sifat jihatdan baholanishini ham o'z ichiga olishi;

Tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) qiymati bir shartnoma bo'yicha bazaviy hisoblash miqdorining 25 000 baravaridan, budget buyurtmachilari uchun esa 6 000 baravaridan ortiq bo'lgan miqdorni tashkil etishi.

Tender va eng yaxshi takliflarni tanlash yo'li bilan xaridlarni amalga oshirish amaliyotiga ko'ra, davlat buyurtmachisi tomonidan Davlat xaridlari maxsus axborot portali orqali elektron tizimda tender yoki tanlov o'tkazilishi to'g'risida e'lon joylashtirilgan paytdan boshlab, tender ishtirokchilari ushbu tenderda qatnashish uchun majburiy tarzda taqdim etilishi lozim bo'lgan hujjatlarni rasmiylashtirishi lozim.

Mazkur hujjatlarning ayrimlari tender ishtirokchilari tomonidan taqdim etilishi imkonsiz bo'lganligi sababli, tender yoki tanlovning birinchi bosqichidayoq ularning chiqarib yuborilishiga sabab bo'lmoqda.

Tender va tanlov yo'li bilan xaridlarni amalga oshirishda ishtirok etishni istagan tadbirkorlik subyektlari quyidagi hujjatlarni ishchi guruhga taqdim etishi yoki elektron portalga yuklashi belgilangan:

Tashkilotning davlat ro'yxatidan o'tganligi to'g'risidagi guvohnoma (mahalliy va xorijiy ishtirokchilar);

Soliqlar va yig'implarni to'lash bo'yicha muddati o'tgan qarzdorlik mavjud emasligi to'g'risida soliq inspeksiyasining ma'lumotnomasi (mahalliy ishtirokchilar);

Mahalliy ishtirokchilar uchun – korxonaning oxirgi yillik balansi; xorijiy ishtirokchilar uchun – xizmat ko'rsatuvchi bankdan tashkilotning moliyaviy holati to'g'risida ma'lumot;

Xarid komissiyasi raisi nomiga yozilgan ariza (mahalliy va xorijiy ishtirokchilar);

Ishirokchining qayta tashkil etish, tugatish yoki bankrotlik holatlari va buyurtmachi bilan sud/arbitraj munosabatlariga kirishmaganligi to'g'risida kafolat xati;

Korrupsiya holatlariga yo'l qo'ymaslik to'g'risidagi ariza;

Mahsulot sifatini tasdiqlovchi hujjatlar;

Mahalliy ishtirokchilar uchun: vakolatli organ tomonidan berilgan sanitariya-epidemiologiya xulosasi, veterinariya sertifikati, muvofiqlik sertifikati;

Xorijiy ishtirokchilar uchun: ishlab chiqaruvchining sifat guvohnomasi, mahsulot sifatini tasdiqlovchi boshqa hujjatlar;

Analogik mahsulotni yetkazib berish tajribasining mavjudligi (ilgari tuzilgan shartnomalar nusxasi bilan);

Tayyor mahsulot yoki ishlab chiqarish uchun zarur xomashyoning mavjudligi to'g'risida ma'lumot yoki ishlab chiqaruvchi bilan tuzilgan rasmiy shartnoma.

Tender yoki tanlovda ishtirok etuvchi subyektlar tomonidan hujjatlar to'liq va to'g'ri rasmiylashtirilmaganligi sababli, ularning ko'pchiligi birinchi bosqichda saralashdan o'ta olmayapti. Bu esa ikkinchi bosqichda ishtirokchilar sonining kamayishiga, kerakli kvorum hosil bo'lmaganligi sababli tenderning o'tkazilmagan deb e'tirof etilishiga olib kelmoqda.

Shu bilan birga, bu holat tenderning raqobatbardoshligini pasaytiradi, davlat xaridlarining nisbatan yuqori narxlarda amalga oshishiga yoki ajratilgan mablag'larning samaradorligi past bo'lishiga sabab bo'lmoqda. Yana bir muammo shundaki, kvorum etarli bo'lmaganligi sababli tender bekor qilinadi, natijada zarur davlat xaridlarining amalga oshishi kechikadi yoki umuman amalga oshmay qoladi. Ayniqsa, ikki xil maqsadda ishlatiladigan tovarlar (ishlar, xizmatlar) xaridlarining bajarilmasligi turli favqulodda holatlar oldini olish, ichki bozordagi tebranishlarni barqarorlashtirish va narxlar barqarorligini ta'minlashda, shuningdek, aholini og'ir vaziyatlardan yo'qotishsiz olib chiqish bo'yicha olib borilayotgan choralarni to'liq bajarishda muammolar keltirib chiqaradi.

Tender yoki tanlovda ishtirok etish uchun talab etiladigan hujjatlar ro'yxatiga O'zbekiston Texnik jihatdan tartibga solish agentligi tomonidan ishlab chiqaruvchilar uchun taqdim etiladigan sanitariya-epidemiologiya xulosasi, veterinariya sertifikati va muvofiqlik sertifikatining kiritilishi — ishlab chiqaruvchi bo'lmagan yoki import qiluvchi korxonalarning tenderlarda ishtirok etishini sun'iy ravishda cheklaydi.

Masalan, davlat zaxiralariga yorma mahsulotlarini yetkazib berish bo'yicha o'tkazilgan tanlovda ariza bergan 8 ta tadbirkorlik subyektidan 6 tasi mahsulot sifatini tasdiqlovchi hujjatlarni taqdim eta olmagan, sababi — ular ishlab chiqaruvchi emas, balki distribyutor korxonalar bo'lgan (2-jadval).

Natijada, ikkinchi bosqichga faqat 2 ta korxona o'tgan va ular tomonidan taklif etilgan narxlar asosida tanlov o'tkazilgan. Tanlov yakuniga ko'ra, ikkinchi bosqichda ishtirok etgan «NOBEL TRADE» MCHJ tomonidan taklif etilgan 4 830 so'm/kg narx asosida tanlov g'olibi deb topilgan, «CHEMPION GREEN LANDS» MCHJ esa 4 920 so'm/kg narx bilan zahira g'olibi deb e'lon qilingan.(2-jadval)



2-jadval. Davlat ehtiyojlari uchun yorma mahsulotlarini yetkazib berish bo'yicha o'tkazilgan tanlovning birinchi bosqichi natijalari

T/r	Hujjatlar ro'yxati	«NOBEL TRADE» MCHJ	«Xiggam savdo fayz» MCHJ	«KURBANOV GROUP» MCHJ	«ENERGO TEXNO IMPORT» MCHJ	«CHEMPION GREEN LANDS» MCHJ	«KINDER GARDEN GROUP» MCHJ	«AGRO ORGANIC FOOD» MCHJ	«GROCUS LINE» MCHJ
Taqdim qilinganligi yoki taqdim qilinmaganligi									
1	Tashkilotning davlat ro'yxatidan o'tganligi to'g'risidagi guvohnoma	taqdim qilgan	taqdim qilgan	taqdim qilmagan	taqdim qilgan	taqdim qilgan	taqdim qilgan	taqdim qilgan	taqdim qilgan
2	Soliqlar va yig'implarni to'lash bo'yicha muddati o'tgan qarzdorlikning mavjud emasligi to'g'risida DSning ma'lumotnomasi	taqdim qilgan	taqdim qilgan	taqdim qilgan	taqdim qilgan	taqdim qilgan	taqdim qilgan	taqdim qilinmagan	taqdim qilgan
3	O'ziga nisbatan joriy etilgan bankrotlik tartib-taomillarining mavjud emasligi to'g'risida ma'lumot	taqdim qilgan	taqdim qilgan	taqdim qilgan	taqdim qilgan	taqdim qilgan	taqdim qilgan	taqdim qilgan	taqdim qilmagan
4	Korxonaning oxirgi yillik balansi	taqdim qilgan	taqdim qilgan	taqdim qilgan	taqdim qilgan	taqdim qilgan	taqdim qilgan	taqdim qilgan	taqdim qilgan
5	Tender va tanlashda ishtirok etish uchun xarid komissiyasi raisi nomiga yozilgan ariza	taqdim qilgan	taqdim qilgan	taqdim qilgan	taqdim qilgan	taqdim qilgan	taqdim qilgan	taqdim qilgan	taqdim qilgan
6	Ishtirokchining qayta tashkil etish, tugatish yoki bankrotlik holatlari va buyurtmachi bilan sud yoki arbitraj munosabatlarga kirishmaganlik to'g'risidagi kafolat xati	taqdim qilgan	taqdim qilgan	taqdim qilgan	taqdim qilgan	taqdim qilgan	taqdim qilgan	taqdim qilgan	taqdim qilgan
7	Korrupsiya ko'rinishlariga yo'l qo'ymaslik bo'yicha ariza	taqdim qilgan	taqdim qilgan	taqdim qilgan	taqdim qilgan	taqdim qilgan	taqdim qilgan	taqdim qilgan	taqdim qilgan



8	Mahsulot sifatini tasdiqlovchi hujjatlar: vakolatli organ tomonidan berilgan sanitariya-epidemiologiya xulosasi, veterinariya sertifikati, muvofiqlik sertifikati	taqdim qilgan	taqdim qilmagan	taqdim qilmagan	taqdim qilmagan	taqdim qilgan	taqdim qilmagan	taqdim qilmagan	taqdim qilmagan
9	Anologik mahsulotni yetkazib berish tajribasining mavjudligi	taqdim qilgan	taqdim qilgan	taqdim qilgan	taqdim qilgan	taqdim qilgan	taqdim qilgan	taqdim qilgan	taqdim qilgan
10	Ishlab chiqarilgan tayyor mahsulot yoki ishlab chiqarish uchun zarur tovar mavjudligi to'g'risida ma'lumot yoki ishlab chiqaruvchi bilan rasmiylashtirilgan shartnoma	taqdim qilgan	taqdim qilgan	taqdim qilgan	taqdim qilgan	taqdim qilgan	taqdim qilgan	taqdim qilgan	taqdim qilgan
11	Tanlash bo'yicha tijorat taklifi (taklif etilgan mahsulot nomi, hajmi, narxi va yetkazib berish muddatlari ko'rsatilgan bo'lishi kerak)	taqdim qilgan	taqdim qilgan	taqdim qilgan	taqdim qilgan	taqdim qilgan	taqdim qilgan	taqdim qilgan	taqdim qilgan

Manba: Davlat ehtiyojlari uchun o'tkazilgan tanlov hujjatlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

Ushbu amaliyotning adolatli o'tishini ta'minlash maqsadida, tender va tanlovlarda sanitariya-epidemiologiya xulosasi, veterinariya sertifikati hamda muvofiqlik sertifikati kabi tovarlar (ishlar, xizmatlar) sifatini tasdiqlovchi hujjatlarni aynan mazkur tovarlar (ishlar, xizmatlar)ni yetkazib berish davrida taqdim etish majburiyatini olish to'g'risidagi kafolat xati bilan almashtirish, shuningdek, yetkazib berish bosqichida tanlov yoki tender g'olibi tomonidan taqdim etilgan kafolatga qat'iy rioya etilishini ta'minlash tender va tanlovlarning samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, Qonunda to'g'ridan-to'g'ri shartnomalar asosida davlat xaridlarini amalga oshirish yo'nalishlari belgilangan bo'lib, ular quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- yagona yetkazib beruvchilar reyestriga kiritilgan subyekt bilan;
- tegishli farmon va qarorlar asosida;
- favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish maqsadida;
- sud muhokamalarida ishtirok etish uchun advokat (vakil) tayinlash;
- narxi (yoki tarifi) davlat tomonidan tartibga solinadigan tovarlar (ishlar, xizmatlar)ning xaridi;
- epidemiya, kasalliklar, tabiiy ofatlar yoki texnogen halokatlarning oqibatlarini oldini olish yoki ularni bartaraf etish;
- qo'shimcha ishlar va xizmatlar uchun umumiy shartnoma qiymatining 10 foizidan oshmaydigan xarajatlar;
- ro'yxat asosida ayrim oziq-ovqat mahsulotlari va boshqa turdagi tovarlar (ishlar, xizmatlar)ning xaridi.


O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023–11–sentyabr sanasidagi PF–158-sonli farmoni bilan tasdiqlangan "O'zbekiston – 2030" strategiyasining 89-maqsadida quyidagilar belgilangan:

Transparency International xalqaro tashkiloti tomonidan e'lon qilinadigan Korruptsiyani qabul qilish indeksida kamida 50 pog'onaga yuqorilash;



davlat xaridlari bo'yicha qonunchilik hujjatlari buzilishi holatlarini 2 baravarga kamaytirish;
to'g'ridan-to'g'ri shartnomalar orqali xaridlar amalga oshirilganda mablag'larning talon-toroj qilinishi, narxlarning bozordagidan oshib ketishini oldini olish;
jamoatchilik nazoratini to'laqonli joriy qilish;
barcha normativ-huquqiy hujjatlarni "korruptsiyadan xoli qonunchilik" tamoyili asosida ishlab chiqish.

Olib borilayotgan keng ko'lamli islohotlar samarasi natijasida O'zbekiston Transparency International xalqaro tashkiloti tomonidan e'lon qilinadigan Korruptsiyani qabul qilish indeksida 2012–yilda 170-o'rinni, 49 pog'onaga yaxshilab, 2022, 2023 va 2024 yillar davomida 121-o'rinni egallagan (1-rasm).



1-rasm. "Transparency International" xalqaro tashkiloti tomonidan e'lon qilinadigan Korruptsiyani qabul qilish indeksida egallagan o'rini.

O'zbekiston Respublikasi "Davlat xaridlari to'g'risida"gi 2021–22–apreldagi O'RQ-684-sonli Qonuni,⁶ shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019–8–oktabrdagi PQ-4484-sonli⁷ "Tovar-xom ashyo birjalari faoliyati samaradorligini oshirish va birja savdosi mexanizmlarini yanada takomillashtirish choralari to'g'risida"gi hamda boshqa qarorlar qabul qilingandan so'ng, mamlakatimiz "Transparency International" xalqaro tashkiloti tomonidan e'lon qilingan Korruptsiyani qabul qilish indeksida egallagan o'rni sezilarli darajada ko'tarilganini kuzatish mumkin.

Mazkur qonun va qarorlar asosida davlat xaridlari O'zbekiston Respublikasi Tovar-xom ashyo birjasining tegishli savdo maydonchalari orqali elektron tarzda amalga oshirilishi belgilandi. Bundan tashqari, birja tizimida logistika bo'yicha elektron portal, davlat zaxiralari elektron savdo maydoni, chiroyli raqamlar, mobil raqamlar onlayn auksioni kabi qo'shimcha platformalar ishga tushirildi. Bu esa davlat xaridlarida inson omilining kamayishiga erishishga xizmat qildi. Shunga qaramay, sud muhokamalarida ishtirok etish uchun advokat (vakil) tayinlash maqsadida to'g'ridan-to'g'ri shartnomalar orqali amalga oshiriladigan davlat xaridlarini ham elektron shaklda tashkil etish mexanizmini ishlab chiqish zarur. Bu chora ham sohaga inson omili aralashuvini yanada kamaytiradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqoridagilarni umumlashtirgan holda, davlat xaridlari tizimining shaffofligini ta'minlash, inson omilini imkon qadar kamaytirish va raqobat muhitini kengaytirish maqsadida, tender va tanlovlarda ishtirok etish uchun majburiy tarzda taqdim etilishi lozim bo'lgan hujjatlarni qayta ko'rib chiqish zarur. Shu bilan birga, strategik ahamiyatga ega bo'lmagan tovarlar (ishlar, xizmatlar) xaridini elektron shaklda amalga oshirish amaliyotini keng joriy etish, ikki xil maqsadda ishlatiladigan davlat xaridlarini esa eng yaxshi takliflarni tanlash orqali to'g'ridan-to'g'ri shartnomalar asosida amalga oshirish mexanizmini yo'lga qo'yish tavsiya etiladi. Bunday yondashuv davlat xaridlari va ularga ajratiladigan mablag'lar samaradorligini oshiradi, korruptsiya holatlarning oldini oladi, mamlakat aholisini kechiktirib bo'lmaydigan tovarlar (ishlar, xizmatlar) bilan o'z vaqtida va samarali ta'minlashga xizmat qiladi. Natijada, O'zbekiston "Transparency International" xalqaro tashkiloti tomonidan e'lon qilinadigan Korruptsiyani qabul qilish indeksida yanada yuqori o'rinni egallash imkoniyatiga ega bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining "Davlat xaridlari to'g'risida"gi Qonuni, 2021–22–aprel, O'RQ-684-son. (Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 2021–23–aprel, 03/21/684/0367-son; 2024–22–fevral, 03/24/911/0142-son; 2024–28–noyabr, 03/24/1005/0977-son). <https://www.lex.uz/uz/docs/-5382974>

⁶ O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 22.04.2021 yildagi O'RQ-684-son <https://www.lex.uz/uz/docs/-5382974>

⁷ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 08.10.2019 yildagi PQ-4484-son <https://lex.uz/docs/-4543954>



2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023–11–sentyabrdagi “O'zbekiston – 2030” strategiyasi to'g'risida PF-158-son Farmoni. (Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 2023–12–sentyabr, 06/23/158/0694-son; 2023–29–dekabr). <https://lex.uz/docs/-6600413>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018–27–sentyabrdagi “Davlat xaridlari to'g'risida”gi Qonunni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risidagi PQ-3953-son Qarori. (Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 2018–28–sentyabr, 07/18/3953/1972-son). <https://lex.uz/docs/-3920651?ONDATE=12.05.2025>
4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022–20–maydagi “Davlat xaridlarini amalga oshirish bilan bog'liq tartib-taomillarni tashkil etish va o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 276-son Qarori. (Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 2022–20–may, 09/22/276/0436-son; 2023–1–yanvar, 09/23/734/0002-son; 2023–1–yanvar, 07/23/471/0001-son; 2024–26–fevral, 09/24/100/0152-son). <https://lex.uz/docs/-6026643?ONDATE=26.02.2024>
5. “Transparency International” xalqaro tashkiloti tomonidan e'lon qilingan Korruptsiyani qabul qilish indeksi ma'lumotlari. <https://www.transparency.org/en/cpi/2023>
6. Davlat ehtiyojlari uchun o'tkazilgan tanlov hujjatlari asosidagi ichki amaliy materiallar.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 6

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
